
Obodlik bunyodkorlarining mehnatlari e'tirof etildi

Farg'ona shahrida bunyod bo'layotgan va "Farg'ona mo'jizasi" deya e'tirof etilayotgan Eko shaharda "Ma'naviyat festivali" doirasida ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbir tashkillandi. Tadbirni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Minhojiddin Xojimatov ochib, tadbir ishtirokchilari bo'lgan bunyodkorlarning mehnatlarini e'tirof etdi.

Tadbir davomida quruvchilar va ko'kalamzorlashtirish ishlariga mas'ul bo'lgan xodimlar madaniy xordiq oldilar. Tadbirda so'zga chiqqan targ'ibot guruhi a'zolari quruvchilarimiz, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlarida faol ishtirok etayotganlarning mehnatlarini ulug'lashib ishlariga rivoj tiladilar.

Shuningdek, tadbir davomida faol bunyodkorlar, opa-singillarimizga targ'ibot guruhi a'zolari tomonidan eng sara badiiy adabiyotlar tarqatildi.

2023-04-01 15:42:04